



*hokimligi  
maktabgacha va maktab ta'lifi  
boshqarmasi*

*maktabgacha va  
maktab ta'lifi bo'limi tasarrufidagi  
—umumiy o'rta ta'lim maktabi  
tarix fani o'qituvchisi*

*ning  
20\_\_-20\_\_-o'quv yiliga 7-8-9-sinflar  
bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilar uchun  
tarix fanidan*

**“YOSH TARIXCHI”  
TO'GARAK  
HUJJATLARI**

**To‘garak a’zolari haqida ma’lumot**

<b>Nº</b>	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug‘ilgan sanasi</b>	<b>Sinfı</b>	<b>Manzili (to‘liq)</b>	<b>Ota-onasi (Ismi sharifi)</b>	<b>Telefon (uy yoki mobil)</b>	<b>Izoh</b>
1.							
2.							
3.							
4.							
5.							
6.							
7.							
8.							
9.							
10.							
11.							
12.							
13.							
14.							
15.							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O‘tkazilgan xona \_\_\_\_\_

” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

To‘garak rahbari \_\_\_\_\_

“ \_\_\_\_\_ ” To‘garak mashg‘ulotlar o‘tkazilish sanalari

## To‘garak rahbari \_\_\_\_\_

**“TASDIQLAYMAN”  
MMIBDO‘**

**20\_\_-20\_\_-o‘quv yilida bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar uchun tuzilgan  
“Yosh tarixshi” nomli to‘garagining  
ISH REJASI**

<b>№</b>	<b>Yillik ish reja mavzulari</b>	<b>Soat</b>	<b>Sana</b>	<b>Izoh</b>
1.	IV–V asrlarda xioniylar va kidariylar	1		
2.	German qabilalari va Rim imperiyasi	1		
3.	Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat	1		
4.	Movarounnahr va Xurosonda shayboniylar hukmronligining o‘rnatalishi	1		
5.	G‘arbiy Yevropada yangi davr madaniyatining shakllanishi	1		
6.	Angliyada qirol hokimiyatining kuchayishi	1		
7.	Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi	1		
8.	Iqtisodiy va siyosiy hayot	1		
9.	Germaniya qirolligi	1		
10.	Vizantianing paydo bo‘lishi	1		
11.	XVI-XVIII asrlarda xalqaro munosabatlar	1		
12.	Amerika qo‘shma shtatlarining tashkil topishi	1		
13.	Turkiston o‘lkasida rossiya imperiyasining yer-suv siyosati	1		
14.	XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlarida turkistonda ijtimoiy – iqtisodiy ahvol	1		
15.	Rossiyada Davlat dumdbin tashkil etilishi	1		
16.	G‘aznaviylar	1		
17.	Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat	1		
18.	Yaponianing geografik joylashuvi	1		
19.	Amirlikda markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi	1		
20.	Buxoro amirligida madaniy hayot	1		
21.	Soliq va majburiyatlar . Xalq qo‘zg‘olonlari	1		
22.	Qoraqalpoqlar madaniyati	1		
23.	Jadidlarning dasturiy maqsad va vazifalari	1		
24.	Turkiston ijtimoiy siyosiy hayotga ta’siri	1		
25.	Mayyalar davlati	1		
26.	Adabiyot	1		
27.	1800-1870-yillarda Hindiston	1		
28.	1800-1870-yillarda Xitoy	1		
29.	Jizzax qo‘zg‘oloni	1		
30.	Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy -iqtisodiy hayoti	1		
31.	Qo‘qon xonligida ta’lim	1		
32.	1800-1870-yillarda eron va Afg‘oniston	1		
33.	Xiva xonligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli	1		
34.	Birinchi jahon urushining boshlanishi va borishi	1		

Sana: " " 20 -yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To'garak rahbari: \_\_\_\_\_

Mavzu: IV–V asrlarda xioniylar va kidariylar.

### Mashg'ulotning maqsadi:

**Ta'limi:** o'quchilarda mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, to'garaka bo'lgan qiziqishini ortirish, uzoq o'tmish, o'z xalqi va mamlakati tarixi haqida tuchuncha berish, tariximizni o'rganish mobaynida, qalblarida faxr va iftixor tuyg'ularini shakillantirish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilar mustaqil ishslashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ajdodlarimizning jasorati, amalga oshirgan buyuk ishlari, qalblarida vatanparvarlik hissini uyg'otish, Vatan manfaatlarini himoya qilishga o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishslash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

### O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

#### O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish; o'z xatti-harakatini adekvat baholash:

#### Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

Jamiyatda bo'layotgan voqeа, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirok etish; o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilish.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishslash, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman" shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jahozi:** «O'zbekiston tarixi» 7-sinf uchun darslik, mavzuga oid ko'rgazmali qurollar, plakatlar, tarqatma materiallar o'quv qurollari, elektron materiallar.

#### Mashg'ulotning borishi:

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

#### III. Yangi mavzu bayoni:

V asrnинг 20-yillarda sharqdan Sir daryo va Orol bo'yłari orqali Xorazm hamda Amudaryo hav zasiga yana bir ko'chmanchi chorvador aholi – toxarlarkirib kelgan. Toxariylar kushonlarning avlodlari bo'lgan. Ularga Kidar ismli hukmdor boshchilik qilganligi uchun ularni kidariylardeb ham atashadi. Tez orada kidariylar Xioniylar davlatining janubiy qismida o'z hukmronligini o'r nat ganlar. Balx shahri bu yangi davlatning poytaxtiga ay lan tirilgan. Manbalarda aytishicha, kidariylar dastlab Sharqiy Turkiston hududida yashaganlar. Yuechjilar (kushonlar) hukmdori Sidolo jujanlar hujumi tufayli o'z qarorgohini Bolo (Balx)ga ko'chirgan. Kidar esa, Shimoliy Hindistonga yurish qilib, Gandhardan shimoldagi 5 ta davlatni o'ziga bo'ysundirgan. Kidariylarning janubdagisi Eron sosoniylari bilan munosabati yomonlashib borgan.

456-yilda kidariylar va sosoniylar o'rtasida to'qnashuv bo'lib o'tadi. Bu to'qnashuvda kidariylar sosoniylardan yengiladi.

#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

1. Mamlakatimiz hududidagi qadimiy xalqlarning asosiy mashg'ulotlari nimalardan iborat bo'lgan? Ular asosan qaysi hududlarda yashaganlar?

**V. Mashg'ulotni yakunlash:** to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.



Sana: " " 20 -yil. Sinflar: \_\_\_\_\_. To 'garak rahbari: \_\_\_\_\_

Mavzu: German qabilalari va Rim imperiyasi.

#### Mashg'ulotning maqsadi:

**Ta'limiylar:** o'quvchilar mavzuga oid bilim va tushunchalar hosil qilsih, to'garaka bo'lgan qiziqishini ortirish, yer egaligi jamiyatining qanday vujudga kelgani, qay tariqa rivoj topgani, xalqlarning turmush tarzi, mehnat munosabatlari, ozodlik uchun olib borilgan kurashlar bilan bir qatorda, bosqinchilik va talonchilik yurishlari haqida tushuncha berish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilar mustaqil ishslashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, o'rta asrlar tarixi haqidagi ma'lumotlarni moddiy va yozma manbalar orqali olashlari, moddiy manbalarga tarixiy muzeylardagi mehnat va jang qurollari, kiyim-kechak va taqinchoqlar, tangalar, haykallar, suratlar, shuningdek, uy-joylar, saroylar, qasrlar, ibodatxonalar kirishi, yozma manbalarga esa tarixiy yilnomalar, soliq, jarima, sud, oldi-sotdi, qarz majburiyatlari bilan bog'liq rasmiy hujjatlar, imperator, qirov va sultonlarning farmon-farmoyishlari, sayyoh olimlar va elchilarining kundaliklari, tarixchi olimlarning asarlari misol bo'la olishi haqida tushuntirish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarining mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'n asr davom etgan o'rta asrlar davrida Yevropa, Osiyo, Afrika va Amerika qit'alarida ko'plab muhim voqealar yuz berib, madaniyat taraqqiyotida ajoyib yutuqlar qo'liga kiritilganligi, markazlashgan yirik davlatlarning vujudga kelishi hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, savdo, ilm-fan va madaniyatning rivojlanishiga turki bo'lganligi haqida tushuncha berish, berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishslash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

#### O'quvchilarda shakkantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:** shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash:

#### Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish

**hamda foydalanish kompetensiyasi:** kompetensiyasi kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni o'qiy olish va foydalanish;

inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdarligini oshiradigan va qulay shartsharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishslash, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman" shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jahozi:** «Jahon tarixi» 7-sinf uchun darslik, mavzuga oid ko'rgazmali qurollar, plakatlar, tarqatma materiallar o'quv qurollari, elektron materiallar.

#### Mashg'ulotning borishi:

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b)

Topshiriqlarni tekshirish.

#### III. Yangi mavzu bayoni:

Rim imperiyasining shimoliy hududlarida yashagan german qabilalarining ko'-chishlari (milodiy IV–VI asrlar) Yevropa tarixida muhim voqealardan biri bo'ldi. Bu qabilalar haqidagi ilk yozma ma'lumotlar Yuliy Sezarning "Galliya urushi haqida xotiralar" va Rim tarixchisi Korneliy Tatsitning "Germaniya" asarlarida keltirilgan. German qabilalari Yevropaning shimolida hamda Reyndan Elba daryosigacha bo'lgan hududlarda yashashgan. Ular baland bo'yłari, ko'k ko'zları, qizg'ish sochlari, jangovalrik va uddaburonliklari bilan janubiy xalqlardan ajralib turardi. Germanlarning mustahkam hamda bir-biriga yaqin qurilgan qishloqlari bo'lmagan. Har bir oila o'tloq va to'qaylar bilan o'ralgan alohida xo'jalikda yashab, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Urug'chilik jamoasi darajasida yashagan germanlarda yerga nisbatan jamoa yer egaligi mavjud bo'lib, urug' jamoalarini hamkorlikda o'rmondag'i daraxtlarni kesib, yangi yerlar ochganlar. Yerga avval oddiy yog'och so'qa yordamida ishlov berishgan, yerni o'g'itlashmagan. Keyinchalik almashlab ekish usuli hamda omochdan temir plugga o'tilishi mehnat unumdarligining oshishi, hosilning ortishiga olib kelgan. Ular hayvonlar terisidan kiyim tikib kiyishgan, qilich, qalqon, bolta va nayzalar bilan qurollangan, urush va ov qilishni yaxshi ko'rishgan. Kundalik hayotlarida esa nondan ko'ra sut, pishloq va go'shtni ko'proq iste'mol qilganlar. Qadimgi germanlar dinida alohida e'tiborga ega kohinlar, muhtasham ibodatxonalar, dabdabali marosimlar bo'lmagan. Ular tabiat kuchlari – osmon, momaqaldoiroq, shamol va yerni ilohiylashtirganlar. German qabilalarining ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar hamda Rim imperiyasi bilan doimiy aloqalari ularning diniy e'tiqodining o'zgarib borishiga olib keladi. Qabilalar orasida targ'ibot orqali xristianlik dini tarqalib, ijtimoiy taraqqiyot yanada tezlashadi.



#### IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

• Rim imperiyasi o'zining kuch-qudrat cho'qqisiga qachon va qanday erishgan?

• Qadimgi dunyoning qanday imperiyalarini bilasiz?

**V. Mashg'ulotni yakunlash:** to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.

Sana: " " 20 -yil. Sinflar: \_\_\_\_\_ To 'garak rahbari: \_\_\_\_\_

Mavzu: Dashti Qipchoqdagi siyosiy vaziyat.

#### **Mashg'ulotning maqsadi:**

**Ta'limiylar:** o'quchilar mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida sodir bo'lgan voqealar haqida tuchunchalar berish, tariximizni o'rganish mobaynida, qalblarida faxr va iftixon tuyg'ularini shakillantirish.

**Tarbiyaviy:** o'quvchilar mustaqil ishlashga o'rgatish, o'quvchilar bilimlarni boyitish va yangi bilim berish, ota-bobolarimiz mustamlaka jabr-zulmiga qarshi Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun qahramonona kurashganligi, Vatan ravnaqi yo'lida fidokorona mehnat qilib, katta ma'naviy va moddiy bunyodkorlik ishlarini amalga oshirganligi haqida tushuncha berish.

**Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, o'z Vatanimiz tarixini bilishi va boshqa mamlakatlar xalqlarining tarixi va madaniyatini hurmat bilan qarashi, berilgan rasrnlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg'otish.

#### **O'quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:**

##### **Kommunikativ kompetensiya:**

o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;

ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uniishontira bilish; turli ziddiyatlari vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish.

##### **O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiya:**

shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

o'z xatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish.

**Mashg'ulot turi:** yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

**Mashg'ulot uslubi:** tushuntirish, suxbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, guruhlarda ishslash, ko'rgazmali va boshqalar.

**Mashg'ulot metodi:** guruhlarda ishslash, "kim epchil-u, kim chaqqon", "ko'rsam tezroq o'rganaman" shu kabi metodlar.

**Mashg'ulot jihizi:** «O'zbekiston tarixi» 8-sinf uchun darslik, mavzuga oid ko'rgazmali qurollar, plakatlar, tarqatma materiallar o'quv qurollari, elektron materiallar.

##### **Mashg'ulotning borishi:**

**I. Tashkiliy qism:** a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

**II. Uyga vazifani so'rash:** a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

##### **III. Yangi mavzu bayoni:**

XI asrdan boshlab arab va fors manbalarida „Dashti Qipchoq deb ataluvchi geografik hudud tilga olinadi. Bu atama Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyanshanning g'arbiy yonbag'ridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar cho'zilgan dashtlarga nisbatan ishlatilgan. Ural (Yoyiq) daryosi Dashti Qipchoqni sharqiy va g'arbiy qismlarga ajratib turgan. Dashti Qipchoqning sharqiy qismi aholisi o'zheklar deb atalgan. („O'zbek“ atamasining ma'nosini siz VII sinf „O'zbekiston tarixi“ darsligidan bilib olgansiz.) 1240-yilda Chingizzonning nabirasi, Jo'jxonning (Chingizzonning katta o'g'li) o'g'li Botuxon Oltin O'rda xonligiga asos soldi. Bu davlat Jo'ji ulusi deb ham ataladi. U Xorazm, Shimoliy Kavkaz, Volga bulg'orlari yurti, Dashti Qipchoq, Qrim va G'arbiy Sibir hududlarini o'z ichiga olgan. Rus esa unga o'lpox to'lab turgan. Oltin O'rda Jo'jxonning o'g'illari o'rtasida uluslarga bo'linishi natijasida, Dashti Qipchoqning sharqiy qismi Jo'jxonning beshinchisi o'g'li Shaybonga tegdi. Ayni paytda, toj-u taxt uchun o'zaro kurash kuchaydi. Bu kurash, ayniqsa, ulusning Shaybon naslidan bo'lgao hukmdori Davlatshayx 1425-yilda vafot etgaeh yanada avj oldi. Ana shunday og'ir vaziyatda Davlatshayxning o'g'li Abulxayrxon siyosat maydoniga chiqdi.

##### **IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.**

1. Dashti Qipchoq deyilganda qaysi geograflk hudud tushuniladi?

2. Abulxayrxon qachon, qayerda va qanday davlatga asos soldi?

**V. Mashg'ulotni yakunlash:** to'garak a'zolarini yutuq va kamchilliklarini muxokama qilish, rag'batlantirish.

**VI. Uyga vazifani e'lon qilish:** yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustaxkamlab kelish.



Shayboniyxon

*veb-saytimiz: Zokirjon.com*  
*Hujjat Word variantda beriladi.*  
*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi. Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi*

**40 listdan iborat tarix fanidan 7-8-9-sinf bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarga 34 soatli to‘garakni to‘liq holda olish uchun telegramdan yozing.**

**Narxi: 20 ming so‘m**



To‘lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



### **DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.  
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:  
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.  
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA  
HIYONAT QILMANG.**